

DOSTONLAR TILIDAGI MORFOLOGIK TAKRORNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Zuhra Yo'ldosheva

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Annotasiya. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda, morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek, ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik–emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda, dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Kalit so'zlar: Dostonlar tili, morfologik takror, lingvopoetika, morfema, "Xoldoxon" dostoni.

Annotation. When analyzing the linguistic features of a literary text, it is necessary to consider the use of morphological units. The aesthetic function of morphological units refers to the expression of expressiveness and emotionality through the use of special word forms and forms that carry specific grammatical meanings and functions. Expressiveness is clearly evident in words with positive or negative connotations. When a literary text is examined from a linguistic perspective, it is important to first identify such connotative elements, determine their grammatical category, analyze in whose speech they are used, for what purpose, towards whom, and in what context.

Keywords: Language of epics, morphological repetition, linguopoetics, morpheme, "Kholdokhon" epic.

Odatda erkalash-suyish, hurmat-e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: *qizaloq, toychoq, o'rgilay, girgitton bo'lay, bolaginam, oppog'im, do'mbog'im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim* kabi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrlilik,

masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. O'zbek tilida kichraytirish shakli *-cha, -choq, -chak* qo'shimchalari bilan; erkalash shakli *-jon, -xon, -oy, -(a)loq* affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar esa *-lar* affiksi bilan hosil qilinadi. *-gina* qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qo'llangan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri morfologik takroridir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita – morfologik parallelizmning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin.¹

Doston matnida morfologik birliklar takrori ham ko'p uchraydi. Morfologik birliklar tizimidan ayrim so'z turkumlari, ot so'z turkumidan atoqli otlar (antroponimlar), sifat, son, olmosh, fe'l, undovlar, yuklamalar, modal so'zlarning takror qo'llanishi badiiy-estetik jihatdan diqqatga molik. Fonetik takrorga nisbatan morfologik takror nisbatan tarqoq va murakkab. Ularni tasnif va tahlil qilish orqali dostonning morfologik strukturasi yaxlit holda tasavvur qilish imkoniga ega bo'linadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pincha bir takrorlanuvchi birlikni fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik takror sifatida tahlilga tortish mumkin bo'ladi. Biz buni oldingi bobda jadval asosida ko'rsatishga harakat qildik. Shu bois ot, sifat, son, olmosh, fe'l turkimidagi so'zlar tahlil qilinganda leksik takrorga xoslik sezilib turadi. Ular morfologik takror doirasida o'rganilganda, asosan, muayyan so'z turkumiga mansubligiga e'tibor qaratildi. Va badiiy-estetik ta'kid aniq sezilib turgan morfologik birliklar tahlilga tortildi. Bular ichida undov, yuklama va modal so'zlar takroriga ko'proq e'tibor jalb qilindi.

Son so'z turkumi bilan bog'liq so'zlar takrori ham dostonda muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, sanoq sonlarning juft holda takroran qo'llanilishi o'ziga xos. Me'yorga ko'ra taqsim son *beshtadan, o'ntadan* shaklida qo'llanadi. Shuningdek, oldin kichik son, keyin katta keladi. Odatda bular *besh-o'ntadan* yoki *beshta-beshtadan, o'nta-o'ntadan* tarzida beriladi. Dostondagi *o'n-o'ndan, besh-beshdan* tarzidagi taqsimda jonli nutqqa hamda qadimiy sanoq tizimiga xoslik qabariq ifodalanadi. Bu esa epik nutqning tarixiyiligini ta'kidlashga xizmat qiladi, ushbu misolda buni ko'rish mumkin:

Endi, yigitlar, ishni durust-durust qiling, urushni har yoqdan, har tarafdanda o'n-o'ndan, besh-beshdan qamab, qistab, qamsab urushsanglar, bir gap bo'ladi-da.

¹ Бу ҳақда қаранг: Йўлдошев М., Исоқов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. -Б.46-47.

Yana quyidagi misolda ham son takroridan taxminiy miqdorni ifodalash uchun foydalanilgan.

*Ana endi Ahmad sardorning olomonlari bir-birovidan miltiqni **kim** yaxshi otadi, **kim shakaman mergan**, deb so' rashib, **bo'z bolalardan yurakli, botiri kim**, qaysi, deb **mergan, shakamandan o'n-o'n beshni topib, botir bo'z boladan ham o'n-o'n besh topib, oqshomi bilan bular ham g'amini eb, o'z taraddudini qilib yota bersin.***

Keltirilgan misolda so'roq olmoshining takrori (*kim*), shuningdek, ot va sifat turkumiga mansub birliklar (*bola, shakaman, mergan, botir, bo'z*) ham takrorlanib kelgan va ular matnda alohida ta'kid olgan.

Sanoq son bilan bog'liq yana bir qiziq holatni aytib o'tish lozim. Dostonda *ikki* sanoq soni 400 dan ortiq o'rinda qo'llangani kuzatildi. Masalan:

*Ana bo'ldi toza maydon, taloto'p,
Har tarafdin shovqum chiqar urgin, deb.
Ikki qo'shin endi bo'ldi aralash,
Ikki yoq ham g'ayrat qilar, qo'ysak, deb.
Ayamasdan u ham, bu ham uradi,
Bir-birini qaramasdan qiradi.
Tomosha qing *ikki* lashkar – *ikki* tog',
Zarbiga qora er larzon beradi.*

Bu o'rinda sanoq son muhim bir fikr aytilmoqchi bo'lgan paytda alohida ta'kidni ifodalash uchun qo'llangan. Ayniqsa, o'xshatish qurilmalarda *ikki* soni qiyos va kuchli ta'kid ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

*Birovidan birovi ko'p, **ikki** lashkar misli **ikki** daryoday mavj urib, to'lqin qilib toshib turibdi. **Ikki** lashkar **ikki** tog'day birovidan birovi baland kelaman, deb o'zini havoga olayotir.*

Mazkur gapda turg'un holatdagi lashkar haqida gap ketganida *tog'* etalonidan foydalanilganligini ko'ramiz. Harakatdagi lashkar haqida so'z ketganda esa *mavjlanayotgan daryo* o'xshatishi ishlatiladi. Ya'ni lashkarning juda ko'p ekanligi, daryo to'lqinidek va g'oyat (*tog'dek*) g'ururli ekanligi ta'kidi bor. Har *ikki* lashkarning ham *tog'dek* g'ururi borligi *daryo* va *tog'* etalonlari orqali aniq va ta'sirchan ifodalangan. Bu o'xshatish qurilmalar dostonning boshqa o'rinlarida ham qaytariladi. Masalan:

*Oqshom yotib, ertan bilan yorug' bo'lib, maydonga otlandi, **ikki** lashkar **ikki** yoqdan **ikki** tog'day bo'lib, bir-biriga yondashib, suyanib turdi. **Ikki** saf tortib maydonni orasta qildi.*

Ushbu takrorlar epik formulalar ichida bir necha o'rinda takrorlanadi. Dostonning she'riy qismlarida *tog'* etaloni o'xshatish qurilma *ikki* sonining ta'kidi bilan birga qo'llanadi:

***Ikki** yoq ham birdan aytar ur-ha, ur,
Barisi ham keyin qaytmas bahodir.*

*Tog 'day bo 'p to 'qishdi **ikkovi** endi,
Kishi bilmas, chiqar ekan qaysi zo 'r.*

Ikki soni qiyosni ta'kidlash uchun ham takrorlanadi. Quyidagi parchada urishayotgan ikki qo'shin va ikki shohning holati mazkur sanoq son orqali ta'kidlangan.

Bu o'rinda sanoq son ishlatilmasligi ham mumkin edi. Lekin har ikki tomon uchun ham urushda oson bo'lmaganligini qo'shimcha izohlarsiz, ta'rif-u tavsiflarsiz ta'kidlash imkoni bo'lmasligi mumkin:

*Katta botir o 'z tengiga dush bo 'ldi,
Ikki shoh qo 'zg 'oldi, yomon ish bo 'ldi.
Ikkovi ham juda tolib savashga,
Juda yomon urush kusho-kush bo 'ldi.*

Dostonda lashkar va polvonlar ajdar, arslon, sher, yo'lbars kabi kuch timsoli bo'lgan hayvon zoomorfik metaforalar orqali ifodalanadi:

*Ikki lashkar tomoshaga qaraydi,
O 'rtada olishar ikkita ajdar.*

Bunda *ikki* sonining takrori orqali jang jarayoni xuddi ikki ajdarning to'qnashuviga qiyos qilinadi. Parchadagi polvonlarning o'zaro kurashi esa ajdarlar jangiga qiyoslangan.

Dostonda *bir* sanoq sonining juft holda takroriy qo'llanishi ham ko'p kuzatiladi. Quyidagi parchada *birov* so'zi gumon olmoshiga o'xshab ko'rinsa ham, aslida alohida ajratib ko'rsatish uchun dona son bo'lgan *bittasi* o'rnida qo'llangan:

*Birovi dev bo 'lsa, birovi pari,
Ikkovi ham er yuzining haybari.*

Demak, bunda *birovi* so'zi "qandaydir bir dev", "qandaydir bir pari" ma'nosida emas, balki, "bittasi dev, bittasi pari" ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, *bir* soni yakka holda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda ikki narsa buyumni ajratib ifodalash uchun ham qo'llaniladi:

***Biri** devdir, **bir**i zangi uruvli,
Ikkovining etak boshi turuvli.*

Bunda *bittasi dev*, ikkinchisi *zangi uruvli* ekanligi *bir* sonining takrori orqali alohida ta'kidlangan.

"Xoldorxon" dostonida qahramonlar qarshi tomondan muhlat so'rashda yoki biror bir hodisaning reallashish davrini belgilashda hamda tahminiy miqdorni belgilashda 5 yoki 10 sonlari takroridan foydalanilgani kuzatiladi:

*Endi, yigitlar, ishni durust-durust qiling, urushni har yoqdan, har tarafdan **o'n-o'ndan, besh-beshdan** qamab, qistab, qamsab urushsanglar, bir gap bo'ladi-da.*

Yoki:

Taraddudning kattasi bizdan bo'lmog'i lozim. Biz taraddud qilmasak, Xoldorxon yotadi qo'yadi-da. Endi, yigitlar, ishni durust-durust qiling, urushni har

yoqdan, har tarafdin **o'n-o'ndan, besh-beshdan** qamab, qistab qamsab urushsanglar, bir gap bo'ladi-da. Bo'lmasa, bunday qarab yotsang, qo'shin qocharmi.

Quyidagi misolda ham muhlat so'rashda *o'n-o'n besh* sonlaridan foydalanilgan.

Bizlarga ham zafar vaqti kelib qolar, bu navbatda, – deb ko'p yaxshi gaplardan gapirib, taxtiga chiqib, o'zining ishonimli odamlari bilan maslahat qilib, Go'ro'g'libekka bir ariza bitib yubormoqchi, o'n-o'n besh kun muhlat tilamoqchi bo'lib, mirzani chaqirib, bir xatni bitib, lipopalab mahkam qilib, uning ustiga Xoldorxon podsho tilla muhurni bosib, bir donishmand, bohush, juda serfahm kishini elchi qilib yubora berdi.

Quyidagi parchada ham *o'n-o'n besh* sonlarining takrori asosida tahminiy miqdor ifodalangan:

Bir gap bo'lib men pariga sharmanda bo'lmayin. Sen hozir bo'lib qarab tur, men ham bir-ikki tosh otayin, – deb Hasan ko'lbar joyidan turdi, belini bo'g'di, etakni qaytardi, qo'lini po'stinning engidan chiqarib, katta-katta toshlardan o'pirib olib, ular o'n botmon, o'n besh botmon, to yigirma botmongacha toshni otayotir edi, Hasan ko'lbar qirq botmon, ellik botmon, achchig'i kelsa yuz botmon toshlarni bir qo'liga olib, qizilbosh lashkariga otaberdi.

Keltirilgan parchada *o'n* sanoq sonidan boshqa sonlar ham ishtirok etgan lekin ular takroriy holda qo'llanilmaganligi uchun tahlilga tortilmadi. Shunga qaramay, mazkur parchadagi sonlar matnning son bilan aloqador ma'lumotlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Sanoq sonning darajalangan holda ortib borishi (*o'n, o'n besh, yigirma, qirq, ellik, yuz*) gradatsiyani hosil qiladi.

Dostonda sifatlarning turli *o'rin*larda takrorlanishi ko'p kuzatiladi. Ayniqsa, sifatlarning ot kesim bo'lib kelishi va takror qo'llanishi matnning emotsional-ekspressiv darajasini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Endi beklar, o'lgan yaxshi,

Yerman yakson bo'lgan yaxshi.

Buytib shoh ko'p lashkar qilib,

Yurgandan podabon yaxshi.

Podsholarga xizmat qilsa,

Haqiqatli polvon yaxshi.

Xoldorxon endi sop bo'ldi,

Bu lashkardan karvon yaxshi.

Qattiq kun tug'di boshima,

Shum paymona to'lgan yaxshi.

Lashkar qilib bu urushdan,

Avval bo'yinsungan yaxshi.

Podsho shohman urush qilsa,

Qochmay uni enggan yaxshi.

Ko'rinadiki, yaxshi sifati "ma'qul ekan" ma'noda so'zlovchining xulosasini ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur sifat ayni paytda qiyosni kuchli ta'kidlaydi. Ya'ni zaif, kuchsiz shoh bo'lib lashkar yiqqandan ko'ra cho'pon bo'lgan yaxshi. Mazkur parchada *yaxshi* sifatining kesim o'rnida qo'llanilishi va takrorlanib kelishi o'ziga xos hukm va xulosani ifodalaydi.

"Xoldorxon" dostonida boshqa so'z turkumlari qatorida ravishlarning ham alohida poetik maqsad bilan qo'llangani kuzatiladi. Dostonda *avval* payt ravishini takroriy qo'llash orqali qo'shimcha ottenkalar hosil qilinadi:

Avval-avval zangi yurdi birday bo'p.

Ana endi zangining yo'q majoli,

Barzangining rangi ketdi erday bo'p.

Yoki:

Qiron qushday changal yozdi er Ko'lbar,

Qizilboshning endi uyi kuydi endi.

Mushti bilan avval-avval oralab,

Ne erlarning miyasini o'ydi endi.

Yana bir misol:

Er Ko'lbardan muft qoldi,

Avval-avval kelgani,

Qonga botib bo'p qoldi.

Dostonda sifat, ravish va taqlid so'zlarning orttirma darajasini hosil qilishda adabiy tildan farq qiladigan shakllar qo'llangani kuzatiladi. Masalan: *chog'* so'zi *choppa-chog'/choppa-choq*, *tayin* so'zi *tappa-tayin* tarzida qo'llangan:

O'zi Borsa kelmas bormoqchi bo'lib, taraddud tahlikasini yeb, anjom-yarog'larini tayyorlab, choppa-chog' bo'lib jo'nadi.

Yoki:

O'ynaydi tulpor to'bichoq,

Ikkovi ham bo'p choppa-choq,

Olishdi maydon ichinda.

Yana bir misol:

Xoldorxon mening uchun, meni dushmandan ayrib olaman, deb bechoralar o'lib ketdi demaydi, mening tentakligim tappa tayin, rost aytadi, shu yigit xo'p aytdi-da", – deb shoh Qaysar qo'lidagi tig'ini jilva berib, hozir bo'l deb Beksaraga soldi.

Dostonda *taxt* ravishi *tappa-taxt* tarzida qo'llangan:

Mahkam bo'lib ikki yoq ham bir-biriga qarab o'z rasmi-rusumi bilan tappa-taxt bo'lib turibdi.

Shuningdek, taqlid so'zlarda ham belgining orttirma darajasini ifodalash uchun undoshlarni qavatlab qo'llash usulidan foydalaniladi. Adabiyotshunos N.Hotamov va B.Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da onomatopeya termini shunday izohlanadi: "Onomatopeya

– poetik nutqda, she'r yoki prozadagi tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli"². Demak, taqlidiy so'zlar ham ekspressivlik ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi va badiiy matnda alohida ahamiyat kasb etadi. Taqlid so'zlarda takroriylik ko'p kuzatiladi. Chunki ovoz va holatning tasviriga taqlid shuni taqozo qiladi. Ayniqsa, taqlidiy so'z auslautida³ tovush orttirish, unlilarni birdan ortiq qo'llash, undoslarni qavatlab qo'llash orqali ekspressivlik kuchli ifodalanadi:

*Ot qo'yadi chappa bo'p,
Uchdi o'lik guppa bo'p.
Qat-qat bo'lib yotibdi,
O'lik tappa-tappa bo'p.*

O'zbek tilida holatga yoki tovushni taqlidni ifodalashda *tap, tap-tap* taqlid so'zlaridan foydalaniladi. Dostonda so'z oxirida tovush yoki bo'g'in orttirish orqali ma'noni kuchaytirish holati ko'p kuzatiladi. Yuqoridagi misolda o'likning yiqilish holati *tappa-tappa* taqlidi orqali obrazli ifodalangan. Quyidagi misolda esa ovozga taqlid ayni shaklda obrazli tasvirlanadi:

*Qancha odam o'ldi, deb,
Sardor hisoblab bo'ldi.
Qirib-jo'yib boradi,
Ana shippa-ship bo'ldi.*

Ko'rinadiki, sardorning tez harkatlar bilan dushmanni o'ldirib ketishi *shippa-ship* taqlid so'zi orqali berilgan. Bunda ham tovush, ham holat ifodalangan. Ya'ni qilichning ovozini eshitish barobarida uning tez harakatini ham tasavvur qilamiz.

Tilshunoslikda **polisindeton** deb ataladigan hodisa mavjud bo'lib, bu termin bog'lovchilarning ikkidan ortiq qo'llanilishiga nisbatan ishlatiladi⁴. T.I.Silmanning ta'kidlashicha, "bog'lovchilar takrorlarning bir ko'rinishi bo'lib, ularning bir sintaktik qurilma tarkibida takroriy qo'llanilishi yetkazilayotgan axborotni yangi fikrlar bilan boyitish, fikrni izchil rivojlantirish, nutqning o'quvchiga ta'sir qilish funksiyasini kuchaytirish uchun xizmat qiladi⁵.

Bugungi kunda tilshunoslik fanining keyingi yillarda yuzaga kelgan lingvokulturologiya, lingvopoetika yo'nalishlari mezonlarni nuqtayi nazaridan tahlil etilganda ham polisindetonning funksional imkoniyatlari cheksiz, chegarasiz ekanligi oydinlashadi. Bir bog'lovchining qayta-qayta qo'llanishi bilan poetik nutqqa uslubiy ta'sirlilik yuklanadi. Ko'pbog'lovchililik asosida shakllangan sintaktik qurilmalar

² Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 215.

³ Auslaut (nem. Auslaut) — fonetik atama bo'lib, so'z yakuni, so'zning tugallanishi, so'zning oxiridagi tovush kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

⁴ Веккессер М.В. Полисиндетон как стилистическая фигура: на материале современного русского языка: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Красноярск, 2007. – С. 8; Веккессер, М.Б. К вопросу о структурно-семантических разновидностях стилистической фигуры полисиндетона / М.Б. Веккессер // Актуальные проблемы языка и литературы на рубеже веков Материалы Всерос конф 25-27 сент. 2001 Вып 2 -Абакан, 2001. – С. 25-27.

⁵ Сильман Т.Н. Синтаксико-стилистические особенности повторов – Вопр. языкознания, 1967, № 2, с. 68.

tarkibida takror, parallelizm kabi hodisalar yuzaga keladi va ular poetik **nutqda** o'ziga xos simmetriya hosil qiladi.⁶

Olim bir bog'lovchining takroriy qo'llanishi natijasida poetik nutqda nimalar hosil bo'lishi haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: "Bog'lovchilarning takroriy qo'llanilishi poetik nutqqa ifodalilik, siqqlik, tasviriylik berish bilan birga, nutq tempini ko'taradi, kuchaytiradi. Bunda poetik nutq tarkibidagi faol so'zlar qanchalik chuqur ma'no ifoda etmasin, emotsionallik hosil qilishda ikkinchi darajali vositaga aylanib qoladi. Faol qo'llangan so'zlarning uslubiy imkoniyatlari ular qayta va qayta takroran qo'llangandagina to'la yuzaga chiqadi. Takroriy faol so'zlarning bog'lanishida esa bog'lovchilarning ham takroriy qo'llanishi, ya'ni polisindeton hodisasi muhim rol o'ynaydi"⁷. Demak, polisindeton she'riy nutqqa ham, nasriy nutqqa ham xos bo'lib, turli ma'nolarni namoyon qilishga xizmat qiladi. M.Abdupattoyev ko'pbog'lovchililik hodisalarini shunday xulosalaydi: "Polisindeton bog'lovchilarni takrorlash orqali fikrni ajratib ko'rsatish, kuchaytirish, ta'kidlash vositasi hamdir. U poetik nutqning nafaqat gorizontalar tartiblanishini, balki vertikal (satrlararo) bog'liqligini ham ta'minlaydi. Bog'lovchining takrorlanishi bayon qilinayotgan voqea-hodisalarning uzviy rivojlanishi, tadrijiy taraqqiyoti uchun yo'l ochadi, sintaktik qurilmada mazmun uyg'unligini keltirib chiqaradi. Polisindetonning uslubiy qiymati shundaki, u nutq qismlariga shakliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham mustaqillik beradi. Uning uslubiy imkoniyatlari poetik nutq chuqur tahlil qilingandagina yuzaga chiqadi"⁸.

O'zbek tilshunosligida bu hodisa ko'p bog'lovchililik deb yuritiladi. Bog'lovchilarning qatorlashib qo'llanilishi matndagi musiqiylikni, o'ziga xos evfoniyani ta'minlashga xizmat qiladi: Masalan:

*Na suygu, na kuygu, na tuyg'u, na dard,
na kadar naqadar meni suymaydi.*

*Na kuz bu, na ro'z bu, na so'z bu, na zard,
yuragim qovjirar, illo kuymaydi. (Faxriyor)*

"Xoldorxon" dostonida ham bog'lovchilar takrori alohida poetik ahamiyat kasb etuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. Quyidagi misolda **yo** ayiruv bog'lovchisining takrori kuzatiladi: *Ay-hay, Tumaloq esa mening bilan qanday maydon qilasan; kurashasanmi, qo'yama-qo'litiq olasanmi, yo sarqakurash olasanmi, yo mushtlashasanmi, yo bo'lmasa kaltak olib kaltaklashasanmi, qaysisini qilasan, hu-ha? – dedi.*

Matndagi bog'lovchilarning uch o'rinda kelishi og'zaki nutqqa xoslikni ta'kidlash bilan birga nutq qaratilgan shaxsga tanlov imkoniyatini taqdim qilayotganligi anglashiladi. Adabiy til me'yoriga ko'ra **yo** bog'lovchisi ikki marta

⁶ Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. -Б.162.

⁷ Абдупаттоев М. Қўрсатилган асар. 163-б.

⁸ Абдупаттоев М. Ўша манба, -Б.163.

qo'llanadi va takror bog'lovchilar sirasiga kiradi. Semantik jihatdan qiyosni ifodalaydi. Gap mazmuniga ko'ra, ikki holatdan birini tanlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan: *...urush yo nari bo'lsin, yo beri bo'lsin, – deb bek Go'ro'g'li juda qobog'ini uyib gapirdi.*

Uch marta takrorlangani esa yuqorida ta'kidlanganidek, tanlash imkoniyatining ko'pligiga ishora qiladi. Dostonning nasriy qismda shunga o'xshash holatlar juda ko'p kuzatiladi. Masalan: *Bu yoqdan ne karnay chalar, ne surnayni chalar, ne dobil urar; hech nimani bilmaganday, eshitmaganday xotirjam.*

Dostonda ayrim bog'lovchilar nafaqat uch balki undan ko'p ham qo'llanganligini kuzatishimiz mumkin:

Shuytib har erda yo maydonda yo yo'lda, yo cho'lda-tuzda, yo shu lashkarning ichida, yo Qrimga borganida qizilboshlarning lashkarida shul Avazxon maydon qilaman deb, shunday bir erda holini bilmay, o'z tengini tanimay bir gap bo'lmasin.

Dostondagi ayrim o'rinlarda jang tasvirida yuklamalar takroridan foydalanish orqali kuchli tasvirlar yaratilgan. Masalan:

Ikki tog' to'qishsa, shunday bo'lar-da,

Bulut gurkirasa, dovshin qilar-da.

Boshqa narsa qilolmaydi suratini,

Aytib bo'lmas buning biri tolar-da.

Mazkur parchadagi **–da** ta'kid yuklamasi jang shiddatini ta'kidlashga xizmat qilgan. Janglar go'yo tog'larning to'qnashuvi, momaqaldiraq guldurashiga qiyos qilib tasvirlanadi. Ta'kid yuklamasi ayni o'rinda takroriylikni, jang voqealarining uzluksiz davom etayotganini ifodalashga xizmat qilgan. **–da** yuklamasining bu tarzda qo'llanishi odatda og'zaki nutqda kuzatiladi.

Doston matnida modal so'zlar kam kuzatiladi. Biroq Go'ro'g'libek nutqida *bor* modal so'zining so'roq shakli sanash va ta'kidni kuchaytirish uchun takroran qo'llangan. Bunda so'roq yuklamasining qo'shib kelishi ham emotsional-ekspressivlikni ta'kidlashga xizmat qilgan. So'roq yuklamasining takrori ham affiksial takrorning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Dostonda sanash ohangini ifodalovchi o'rinlarda adabiy til me'yorlariga ko'ra bir dona qo'llanishilishi kerak bo'lgan o'rinda ham qatorlashib kelishi ohangdorlik va ta'kidning kuchaytirib ifodalanishiga xizmat qiladi:

Go'ro'g'libek: “Har erda, har mamlakatda o'yinchi bormi, dorboz bormi, nag'magar bormi, ohangar bormi, suxangar bormi, masxaraboz bormi, elda yuradigan yurtni xursand qiladigan odamlar bo'lsa, olib kela bering”, – deb jami elga xabar qilgan edi.

Asos va qo'shimchalar takrori. Doston matnida so'z asosi va qo'shimchalari takroridan ta'sirchanlikni yuzaga chiqarishda foydalanilgani ham kuzatiladi. Quyidagi misolda *osh, pishirmoq, to'y* kabi so'zlarning asosdoshlari nutqning ta'sirli chiqishiga

zamin yaratgan. Ayni asos vositasida hosil qilingan soʻzlarning matndagi takrori ogʻzaki nutqqa xoslik bilan birga axborotlar koʻlamini koʻrsatadi.

“Xoldorxon” matni takror va u bilan bogʻliq turli fikr-mulohazalarni yuritish imkonini berishi jihatidan ham boy dostonlarimizdan sanaladi. Koʻp hollarda takroriy shakllar matndan uzib olinib, tahlilga tortiladi. Bu usul bilan takrorning teran mohiyatiga etib borishimiz mushkul boʻladi. Takror konstruksiyalar tahlilga tortilganda, ularning matnning butuni hamda boshqa fonetik, morfemik, leksik va sintaktik birliklar bilan qanday munosabatga kirishganligini nazardan qochirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdupattoyev M. Oʻzbek tilining poetik sintaksisi. Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. -B.162.

2. Веккесер М.В. Полисиндетон как стилистическая фигура: на материале современного русского языка: Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. Красноярск, 2007. – С. 8;

3. Веккесер, М.Б. К вопросу о структурно-семантических разновидностях стилистической фигуры полисиндетона / М.Б. Веккесер // Актуальные проблемы языка и литературы на рубеже веков Материалы Всерос. Конф. 25-27 сент. 2001 Вып 2 -Абакан, 2001. – С. 25-27.

4. Yoʻldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -B.46-47.

5. Yoʻldoshev M. Choʻlponning badiiy til mahorati: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 24 b.

6. Silman T.N. Sintaksiko-stilisticheskie osobennosti povtorov – Vopr. yazykoznaniya, 1967, № 2, s. 68.

7. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1979. – B. 215.